

Bolalar psixologiyasi va shaxs rivojlanish bosqichlari

Malika Olim qizi Roziqova

Gulnoza Xasanboyeva

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Bolalar psixologiyasining rivojlanish bosqichlari va psixologik o'zgarishlarni kuzatib, tahlil qilish, bolalar psixologiyasini kuzatgan olimlar fikrlari bilan tanishib chiqish, bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini, bir yosh bosqichidan boshqa yosh bosqichiga o'tish bosqichi qonuniyatlarini, ularning psixik holati, oila muhiti va atrof muhitga nisbatan munosabatini, bola psixik rivojlanishida kattalar shu jumladan ota-onasi, do'stlari va yaqinlarining asosiy ro'li masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, individ, ong, yetuklik, falsafa, sotsiologiya, jamiyat, o'sish, rivojlanish, emotsiya, travma, nutq, shaxs, pedagogika

Child Psychology and Stages of Personal Development

Malika Olimkizi Rozikova

Gulnoza Khasanboyeva

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: To observe and analyze the stages of development of child psychology and psychological changes, to get acquainted with the ideas of scientists who have observed child psychology, to study the laws of child mental development, the transition from one age stage to another The laws of the stage, their psychological state, family environment and relationship to the environment, the main role of adults, including parents, friends and relatives, in the psychological development of the child are highlighted.

Keywords: psychology, individual, consciousness, maturity, philosophy, sociology, society, growth, development, emotion, trauma, speech, personality, pedagogy

Bolalar psixologiyasi- psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, u turli yosh davrlari bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganadi. D.B.Elkonin ta'kidlaganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib, takomillashib boradi.

Bolaning rivojlanishi juda murakkab davr bo'lib, bu davr uning murakkab psixikasi, ongi, shaxsiy- individual xususiyatlari va shu kabi qator jarayonlarga duch kelamiz. Uni har tomonlama o'rganish jarayonida fiziologiya, pedagogika, gigiyena, etnografiya, falsafa, sotsiologiya, biologiya va shu kabi sohalar bilan uzviy aloqa bog'laymiz. Dastlab bola psixologiyasini o'rganib, izlanishlar olib borgan olimlardan P.P.Blonskiy, J.Piaje, L.S.Vigotskiy va F.Galtonlarni keltirishimiz mumkin. Ular bolani o'zi yashab turgan muhitda tutgan o'rni, o'zini tutishi, bilish jarayonlari, o'ziga xos jarayonlar va ongini o'sishi va rivojlanishini tadqiq qilishgan.

Bolalik - ontogeneznining dastlabki davrini belgilash uchun qo'llaniladigan tushuncha.

Taraqqiyot- narsa yoki hodisalarning vaqt o'tishi bilan miqdor va sifat jihatidan o'zgarishi natijasida yuqoriroq darajaga ko'tarilishidir.

Psixik taraqqiyot- tug'ilgandan boshlab yosh davrlari o'tishi bilan psixik faoliyatning takomillashishidir.

Bolalar psixik rivojlanishini faqat psixologiya emas boshqa fanlar masalan pedagogika, tibbiyot, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, fiziologiya, gigiyena, etnografiya va biologiya kabi fan tarmoqlari ham o'rganadi.

Falsafa va bolalar psixologiyasini bog'liqligi shundaki, falsafa bolani jamiyat bilann bog'lovchi metodologik-nazariya bo'lib hizmat qiladi. Psixologiya ham dastlab falsafa tarkibidan ajralgan. Falsafa - tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotining eng ummniy qonunlari haqidagi fan. Masalan, falsafa qonunlari orasida dialektika ta'limotining uch qonuni - qarama qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkonni inkor etish qonunlari asosiy o'rinni egallaydi. Pedagogika - ta'lim va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fan. a. O'z davrida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerakligi, bu ular orasida psixologiya markaziy o'rin egallashini ta'kidlagan edi

Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-ona nazarida nimani yoki kimni yomon deb bilsa, farzandi ham xuddi shu narsalarni yoki insonlarni yomon deb biladi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Biz rivojlanish psixologiyasi ya'ni Ontogenez psixologiyasida shuni ko'rib chiqdikki, har bir yosh davrlarga ajratilgan, har bir davrning o'z inqirozlari, senzitiv davrlari mavjud. Ya'ni bola dastlabki bilimlarini o'z ota-onasi, yaqin qarindoshlari, umuman olganda kattalardan o'rganadi. Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin, birinchi bor gapira boshlaganda u tevarak-atrofdagi buyumlar va odamlar dunyosini katta yoshdagi odamlar yordamida bilib oladi. Mashxur rus fiziologi Ivan Sechenev shunday yozgan; "Bola gapirishnin o'rganib olgandan keyin unda tevarak-

atrofdagi narsalarga qiziqish va ularni bilishga intilish oshib boradi, bu hol bolaning onasiga; -nega stul yurmaydiyu, quyosh oyoqsiz ham yura oladi? degan savollarni beihitoy berishga sabab bo'ladi. Va bu ko'plab psixologlarni asosiy masalasi bo'lgan. Misol uchun amerikalik psixolog Albert Bandura tomonidan 1961-1963-yillarda o'tkazilgan "Bobo qo'g'irchoq" tajribasini misol qilsak. Bu tajribada tajavvuskorlik va mehribonlik bolalarga o'rgatilgan. Ya'ni dastavval bola ongida hechqanday xis-tuyg'u bo'lmaydi. Ular barini o'rganadi. Yana bir tajribani misol qilamiz, "Kichik Albert" tajribasi. Mashxur amerikalik psixolog Jon Uotson tomonidan o'tkazilgan bo'lib, tajriba bolada qo'rquv instinktini shakllantirdi. Tajriba juda mashxur bo'lsada lekin ahloqiy jihatdan tanqidga uchradi.

Bolalikdagi travmalar mavzusida to'xtalsak. Bolalik inson hayotidagi eng muxim va shu bilan bir qatorda eng havfli davr hamdir. Bu davr baxtli bolalik xotiralari bilan birga bolalik travmalarini ham olib keladi. Va bu travmalar keyinchalik shaxsda turli fobiyalarga sabab bo'lishi ham mumkin. Yuqoridagi tajribada tilga olingan kichik Albert tajribasida ham buni isbotini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davrda yuzaga kelgan travmatik voqealar insonning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bolalik travmalari bu - zo'ravonlik, e'tiborsizlik, yaqin insonning yo'qolishi, yoki doimiy stress holati kabi salbiy tajribalardan iborat bo'lib, bu holatlar inson ulg'aygach uning hayotida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Misol uchun jismoniy travma olgan bola ruhiyatida kuchli travma paydo bo'ladi va bu uning jismoniy, aqliy va psixik jihatdan rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Bolalar o'rtasidagi eng keng tarqalgan jismoniy travma turli yosh guruhlar uchun turlicha bo'ladi. Masalan, go'daklik davdida bolalarda ko'o hollarda kuyish, yiqilishlar natijasida mayda jarohatlar sodir bo'ladi. 1 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarda esa asosan transport hodisalari, tushib ketishlar va kuyishlar keng tarqalgan. 5 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida yo'l-transport hodisalari va sportda olgan jarohatlarini misol qilamiz.

Bolalar psixologiyasini o'rganishda albatta metodlardan foydalanamiz. An'anaviy ravishda tadqiqid metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metod - kuzatish va ekspert- bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma'lumot beradi. Yordamchi metodlar - test, so'rovnoma, faoliyat mahsulini o'rganish- tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin bo'ladi.

S.Vigotskiy o'z kontsepsiyasida bola psixik taraqqiyotining to'rt asosiy qonunini ta'riflab berdi:

1. Bola taraqqiyot ritmlarining farqlanish qonuni. Bu qonunga ko'ra bolaning rivojlanishi o'z sur'atlariga ega, bu sur'atlar vaqt ritmiga to'g'ri kelmaydi.

2. Bola taraqqiyotidagi metamorfoza qonuni.

3. Bola taraqqiyotining notekislik qonuni. Bu qonunga ko'ra, bola psixikasining har bir tomoni o'z taraqqiyotining optimal davriga ega bo'ladi, har xil psixik funksiyalar notekis, noproportsional rivojlanadi.

4. Oliy psixik funksiyalarning shakllanish qonuni. Bu qonunga ko'ra, har qanday oliy psixik funksiya avval bolaning atrofida qilari bilan bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda har bir pedagog, ota-ona va umuman jamiyat bolalarni shaxsiy rivojlanishi uchun har qanday sharoitni yaratib berishi, bilim olishi va shu orqali IQ darajasini oshirishi uchun muhim chora tadbirlarni ko'rishi ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyotlar; E.G' G'oziyev "Umumiy psixologiya" (2010), Gardner, H. Ijodkorlik nazariyasi: tafakkur va emotsiyalar. (2006)

2. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.

3. Nishanova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uning o'qitish metodikasi" Toshkent-2016

4. Utepbergenov, MA va Roziqova, MOQ (2025). Oilada yashaydigan nizolarning bola ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga ta'siri hamda nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Fan va ta'lim , 6 (2), 320-325.

5. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).

6. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOYPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. PEDAGOGS, 48(2), 49-51.

7. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).

8. Diyora Ahmadjonova, & Azimaxon Odiljon Qiz Kamolova (2025). Neyrografika mashg'ulotlari orqali ongosti muammolarini yechish va maqsadga erishish usullari tadqiq etish. Science and Education, 6 (3), 355-360.

9. Saidbek Dilmurod O'G'Li Aliqulov, & A.O.Kamolova (2025). Talabalar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning ahamiyati. Science and Education, 6 (2), 313-319.

10. Kamolova, A. (2024). KASBIY KASALIKLARNI OLDINI OLISHDA VA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING SALOMATLIK

MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 16(8).

11. Azimaxon, K. (2025). The Role of Pedagogical Techniques in Preventing Diseases That Arise Among Students During Professional Activities. Nvpubhouse Library for European International Journal of Pedagogics, 5(07), 57-59.

12. Xasanboyev, A. B. O. G. L. (2025). STEAM ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni ilmiy faoliyatga yo 'naltirishning innovatsion texnologiyalari. Science and Education, 6(5), 296-301.

13. Botirali ogli, X. A. (2025). Current Problems Of Inclusive Education: Challenges And Perspectives. European International Journal of Pedagogics, 5(06), 26-29.

14. Makhammadsidiqovna, K. M. (2025). ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVITY DISORDER (ADHD): PARENTAL APPROACH, THE PRACTICAL IMPORTANCE OF THE 30% RULE, AND REHABILITATION TECHNOLOGIES. Advances in Science and Education, 1(7), 25-26.